



ROBIN SHARMA QALAMIGA MANSUB "O'LSANG KIM YIG'LAYDI" ASARINING
INGLIZ TILIDAN UZBEK TILIGA TARJIMASI JARAYONIDAGI LEKSIK
TRANSFORMATIK TAHLILI

Todjidinova Umida Urinboy qizi
Toshkent Davlat Transport universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lmish Robin Sharmaning "O'lsang kim yig'laydi" asarining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasi jarayonidagi leksik transformatik tahlil ko'rib chiqiladi va leksik transformatsiyaga ham urg'u berib o'tiladi. Tarjima jarayonining muhim jihatlaridan biri asar haqida umumiy ma'lumotlar to'plash va ular bilan tanishib chiqish shuning uchun quyidagi maqolada asar va muallif haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, leksika, transformatsiya, morfologiya, transkripsiya, so'zma-so'z erkin tarjima, adekvat tarjima, tarjimon.

Kirish. Asar haqida qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak, ushbu asar mashhur kanadalik yozuvchi Robin Sharma tomonidan yozilgan va 1999-yilda ilk bora nashr etilgan. Muallif kitobxonlarga "Ferrarisini sotgan rohib" asari bilan juda mashhurdir. Robin Sharma 25 yoshigacha Sud ishlari bo'yicha advokat bo'lib ishlagan. Ammo hozirgi kunda notiq va yozuvchi. Uning 12dan ortiq asarlari mavjud.

"O'lsang, kim yig'laydi?" asariga kelsak, mutolaa avvalidanoq muallif xarakterining asosiy belgilaridan biri samimiylilik ekani anglashiladi. Tili sodda, tushunarli va shu bilan birga mazmunga boy. Kitobni oddiy qilib "Oltin maslahatlar jamlanmasi" deb atasak bo'ladi. Sharma baxtli hayotning 101 qoidasini sanab o'tadi. Berilayotgan maslahatlar bir qarashda oddiy bo'lib tuyuladi. Deylik, u sizga ko'chat ekish, musiqa tinglash haqida gapiradi. Lekin muallif takliflarining tahlilini keltirish orqali ularning naqadar foydaliligini isbotlab beradi.

Hajmi ham katta emas. Atigi 155 sahifalik. Yozuvchi o'zi muhim deb bilgan ma'lumotlarini bir joyga to'plab, shaxsiy fikrlarini ham qo'shgan holda sizga taqdim etadi. Asardagi asosiy g'oya inson o'z olami haqida har tomonlama qayg'urishi, unga ranglar berolishi va albatta, ichki olam rivoji tashqi olam bilan chambarchas bog'liq ekanligini unutilib qo'ymasligidan tashkil topadi. Agar o'z umringiz va hayotingizda tartib - intizom yo'qolganligi, undan go'zallik hamda mazmun chekinganini bilsangiz yoki uning yanada yorqinroq tus olishini istayotgan, ammo ishni nimadan boshlashni bilmayotgan bo'lsangiz, bu kitob aynan siz uchun.

Asosiy qism. Asar tarjimasiga keladigan bo'lsak 2020-yil "Asaxiybook" online kitob do'koni tomonidan tarjima qilingan va hozirgi kungacha o'zbek kitobxonlari tomonidan sevib o'qilmoqda. Tarjima davomidan tarjimon adekvat va erkin tarjima usulidan foydalangan holda asarni tarjima qilgan. Tarjima jarayonida ko'p hollarda leksik transformatsiyalarga duch kelamiz. Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug'atlar ma'lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatdagi lug'atlarda so'z



ma'nosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lug'ati qanchalik mukammal bo'lmasin, unda so'zlarning barcha ma'nolari yoki ma'no nozikliklarini qamrab olishning iloji yo'q, chunki lug'at ikki til tizimi unsurlari bilan ish ko'radi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, nutq mahsuli bo'lmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko'p ma'noli so'zning qaysi ma'nosi qo'llanilganligini kontekst asosida o'zi aniqlamog'i lozim. Tarjimada turli so'zma-so'z, g'aliz birikmalarni qo'llashdan qochish, uning o'rniga adabiy hamma tushunadigan, yorqin so'zlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida so'zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi.

Asardan leksik transformatik birliklar uchun quyida misollarni ko'rib qamiz. Recently, I received a letter from a reader of *The Monk Who Sold his Ferrari* who lives in Washington State. (Every Day, Be Kind to a Stranger Chapter two. Page 11) Tarjimasi: Yaqinda men Vashington shtatida yashovchi "Ferrarisini sotgan rohib" kitobining o'quvchisidan xat oldim. Ingliz tilidagi who, his, kabi olmoshlar tarjima jarayonida tushib qolishi kuzatiladi va buning o'rniga egalik qo'shimchalari orqali o'zbek tiliga o'girilgan. One day, according to an old story a man with a serious illness was wheeled into a hospital room where another patient was resting on a bed next to the window. (Maintain Your Perspective Chapter three Page 9) Tarjimasi: Bu voqea ko'plarga tanish bir kuni aravachada navbatdagi bemorni olib kelishadi boshqa bemor esa deraza yonidagi karavatda yotgan bo'ladi. Ingliz tilidagi aniq va noaniq artikllar o'zbek tilida mavjud emas, ba'zi joylarda bu artikllar bir insonni ba'zi joylarda esa aniq ma'nonini bildirib kelmoqda, biroq bular o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. One being asked about the ups and downs of his career movies star **Kevin Costner** responded with these words "I'm living a life" (Live a Life Chapter twenty-three Page 48) Tarjimasi: Bir kuni Kevin Konsterdan shuhrat yo'lidagi yuksalish va muoffaqiyatsizliklar haqida so'rashdi. U shunday javob berdi "Men yashayapman" Ushbu jumlada transkripsiyani ko'rishimiz mumkin ya'ni qanday tallafuz qilinsa xuddi shu holda o'zbek tiliga tarjima qilingan. We live in a world of broken promises (Develop an Honesty Philosophy. Chapter six. Page 16) Tarjimasi: Va'dalarga amal qilmaydigan davrda yashamoqdamiz. Ushbu jumlada ko'p ma'noli so'z ya'ni world so'zi qatnashgan. Bu so'zning dunyo degan ma'nosi barchaga ma'lum, lekin tarjimon katekstdan kelib chiqib bu so'zning boshqa ma'nosini qo'llagan. World so'zining aynan davr ma'nosi ushbu jumлага to'laqonli mos kelgan. **William Wordsworth** sagely observed "When from our better selves we have too long been parted by the hurrying works, sick of its business of its pleasures tired how gracious how benign is solitude. (Learn to be Silent Chapter sixteen Page 38) Tarjimasi: Uliyam Vords shunday degan: Bu go'zal dunyo bizni eng yaxshi narsalardan uzoq muddatga ayirganida tashvishlarga chidab bo'lmay qolganida, huzur azobga aylanganida, yolg'izlik qanchalik-- yoqimli. Quyidagi jumlada biz transkripsiyani holati yuzaga kelgan, ya'ni qanday tallafuz qilinsa xuddi shunday holda tarjima qilingan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima odatda oddiy so'zlar yig'indisi sifatida ko'rinishi mumkin. Biroq, uning zamirida o'quvchi uchun bir qarashda kishi anglashi qiyin bo'lgan murakkab jarayon yotadi. Qolaversa, tarjimonni ko'proq o'zi ustida ishlash, qayta-qayta tahlil qilib, so'zning nozik jihatlarini taqdim etishi uchun leksik, grammatik va



stilistik bo'yoqdorlik bilan bog'liq muammolarni, yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Buning uchun tarjimon, biz yuqorida sanab o'tgan tarjima muammolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

REFERENCE:

1. Tarjima nazaryasi I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov (2012) 108-110 betlar.
2. Robin Sharma "O'lsang kim yig'laydi " (1999)
3. Iroda Izatullaeva, Liliya Yurevna Filimonova, & Achilov Oybek Rustamovich (2022). SOCIOLOGICAL AND ITS DEVELOPMENT AS AN INDEPENDENT SCIENCE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 621-628.
4. АЧИЛОВ, О. (2022). INGLIZ VA O ZBEK TILLARIDAGI BADIY MATNLARDA ILGARI SURISH VOSITALARINING KOGNITIVPRAGMATIK XUSUSIYATLARI. МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ УЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ.
5. Oybek Rustamovich Achilov (2022). COMPARATIVE STUDYING MODEL OF FOREGROUNDING IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXT. Academic research in educational sciences, 3 (10), 714-718.
6. Orifjonava, L. T. K., Turganbayeva, S. T. K., & Achilov, O. R. (2022). THE MAIN NOTION OF FOREGROUNDING AND ITS INTERPRETATION. Academic research in educational sciences, 3(10), 548-551.
7. Muxiddinov, O. N. U., Nabiev, S. M. U., & Achilov, O. R. (2022). CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES IS ONE OF THE EXPRESSIVE MEANS OF FOREGROUNDING. Academic research in educational sciences, 3(10), 568-571.
8. Ravshanov, N. A. U., Muydinov, K. M. U., & Achilov, O. R. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN MIRMUXSIN'S NOVEL "MEMOR" AND K. MANSFIELDS "A CUP OF TEA". Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 2), 9-12.
9. Hamro Qizi Bozorboyeva Durdona, Alibek Zokir O'G'Li Tajimatov, Oybek Rustamovich Achilov, & Iroda Izatullaeva Ismatullaeva (2022). TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR VA TEXNIK MATNLAR TARJIMASIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR. Academic research in educational sciences, 3 (Special Issue 2), 99-105.
10. Iroda Izatullaeva Ismatullaeva, Liliya Yurevna Filimonova, & Achilov Oybek Rustamovich (2022). SOCIOLOGICAL AND ITS DEVELOPMENT AS AN INDEPENDENT SCIENCE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 621-628.
11. Tohirov, G. T. U., Xudoyberdiyev, S. I. O., & Achilov, O. R. (2022). THE BASIC TYPES OF FOREGROUNDING AND ITS FUNCTIONS. Academic research in educational sciences, 3(10), 557-561.
12. Tayjanov, A. S. O., & Shamuratov, S. D. O. (2022). EVALUATING CHARACTERISTIC FUNCTION OF CONVERGENCE IN LITERARY TEXT. Academic research in educational sciences, 3(10), 577-581.



13. Samandarov, S. U. O., Ortiqov, M. I. O., & Achilov, O. R. (2022). FOREGROUNDING AS A LITERARY DEVICE. Academic research in educational sciences, 3(10), 538-541.
14. Khakimnazarov, A. K. U., Namozov, A. O. U., & Achilov, O. R. (2022). COUPLING AS A STYLISTIC DEVICE IN UZBEK AND IN ENGLISH POEM. Academic research in educational sciences, 3(10), 587-590.
15. Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Web of Scholar, 5(4), 23-27.
16. Химматов, А., Мансуров, А. Р. У., & Ачилов, О. Р. (2022). ИСТОЧНИКИ И МЕТОДЫ ОБОГАЩЕНИЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 2), 43-46.
17. Tohirova, J., Sagidullayeva, M., & Rustamovich, A. O. (2022). VATAN SEVGISIYMON BELGISI. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 2), 132-136.
18. Achilov, O. (2023). O.MUXTORNING "KO'ZGUDAGI ODAM" VA O. WAYLDNING "DORIAN GREYNING PORTRETI" ASARLARI QIYOSIY TAHLILI VA ILGARI SURISH VOSTILARINING ASARDA AKS ETISHI, O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHATLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5) извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7982>
19. Achilov, O. (2023). FOREGROUNDING AND INTERPRETATION. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7984>
20. Achilov, O. (2023). BADIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN TRANSFORMATSIYA VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7978>
21. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH - LISONIY HODISA SIFATIDA. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7986>
22. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH VOSITALARINING UMUMIY VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, KOGNITIV-SEMANTIK ASPEKTI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7980>
23. Achilov, O. (2023). TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNING TURLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7977>
24. Achilov, O. (2023). JORJ ORUELL QALAMIGA MANSUB "1984" ASARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA TAHLILI, MORFOLOGIK VA LEKSIK FARQLIKLAR. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7985>
25. Achilov, O. (2023). ANATOMY OF LANGUAGE AND THEORETICAL ASSUMPTIONS OF COGNITIVE SCIENCE, COMPARATIVE ANALYZES. Журнал



иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от
<https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7983>

26. Achilov, O. (2023). HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA ILGARI SURISH HODISASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7981>